

## ONOMASTIK KONVERSIYA ASOSIDA YUZAGA KELGAN KASBI TOPONIMLARI

Quyanov Samandar Sayliyevich

QarDU mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Bu maqolada onomastik konversiya va bu hodisa asosida yuzaga kelgan joy nomlari aniqlanib, tahlil qilingan, soha manbalariga tayangan holda mulohazalar keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** *toponimlar, apellyativ, onomastik konversiya, leksik tahlil, semantik analiz.*

“Atoqli ot darajasi koʻtarilgan joy nomlari onomastikaning tadqiq sohasiga kiradi. Onomastikada atoqli otlar ham, ular bilan aloqador boʻlgan turdosh otlar ham tadqiq obyekti boʻlishi mumkin. Toponimlar oʻzi atagan obyekt haqida koʻplab maʼlumotlarni berishi mumkin, tilning boshqa hodisasida bunday imkoniyat mavjud emas. Toponimika onomastikaning bir sohasi sifatida uning tarkibiga kiruvchi yoʻnalishlardan ayrim oʻziga xosliklarga egaligi bilan ajarlib turadi. Avvalo, toponimika qamrovida geografik birliklar oʻrganiladi, qolversa, ushbu birliklar oʻziga xos yasaliş xususiyatlariga ega. Toponimiyada har bir obyekt oʻz nomiga ega. Ularning alohida yasaliş qonuniyatlari, usullari mavjud. Toponimlar apellyativ leksika bilan chambarchas bogʻliq. Shuningdek, toponimlarda *konversiya* – koʻchish usuli keng qoʻllaniladi”<sup>142</sup>, – deb qayd etgan edi soha bilimdoni N.Adizova. Demak, “Geografik nomlar majmuining asrlar davomida boyib, takomillashib borishini taʼminlovchi manbalardan biri – nomlarning bir-biriga oʻtishi hodisasi sanaladi. Bu xususiyat har qanday hududiy toponimiyaga va barcha tildagi geografik nomlarga xos. Joy nomlarining har bir guruhi (*oykonimlar, gidronimlar, oronimlar va boshqalar*) oʻz ichida va oʻzaro bir-biriga oʻtishi mumkin”<sup>143</sup>. M.Turdibekov esa tadqiqotida A.V.Superanskayaning qarashlarini ilgari surib: “Atoqli otlarning shu kabi koʻchirilishiga nisbatan *onomastik konversiya* termin”ini qoʻllaganligini alohida eʼtirof etadi<sup>144</sup>.

A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati”da: “*Konversiya* (lot. conversion – aylanish, oʻzgarish). Soʻzning fonetik va morfologik jihatdan oʻzgarmay, bir soʻz turkumidan boshqa bir soʻz turkumiga oʻtishi, shu yoʻl bilan yangi soʻz hosil boʻlishi”<sup>145</sup> deyilgan.

Yuqoridagi maʼlumotlarga tayangan holda biz ham oʻz maqolamizda *onomastik konversiya* orqali yuzaga kelgan Kasbi tumanidagi *Alvon* (sifat), *Oydin* (sifat), *Doʻstona* (ravish), *Xalqchil* (sifat), *Yuksalish* (fe'l) kabi ayrim soʻzlarning atoqli otga oʻtish holatini tahlil qilishga harakat qildik.

<sup>142</sup> Adizova N.B. Buxoro tumani mikrotoponimlarining leksik- semantik tadqiqi: Filol fan. boʻyicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro: 2021. – B. 12.

<sup>143</sup> Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz soʻz, 2016. – B. 98.

<sup>144</sup> Turdibekov M.T. Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarixiy-lingvistik xususiyatlari: Filol fan. dokt. diss. avtoref. – Toshkent: 2022. – B. 21.

<sup>145</sup> Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. www.ziyouz.com kutubxonasi

I.Yo'ldoshev, O'.Sharipova "Tilshunoslik asoslari" kitobida konversiyaga alohida to'xtalib uning quyidagi ko'rinishlari mavjudligini ta'kidlab o'tilgan: "1) *Substantivatsiya* — *konversiya yo'li bilan ot hosil bo'lishi*; 2) *Adyektivatsiya* — *sifat hosil bo'lishi*; 3) *Adverbializatsiya* — *ravish hosil bo'lishi*"<sup>146</sup> ekanligi qayd etilgan. Bundan ko'rinadiki, o'zbek tilida ham yuqoridagi tasniflar umumiy lisonda voqealanishi mumkin, lekin bizning ishimizda ya'ni toponimlarda faqat *substantivatsiya* — *konversiya yo'li bilan ot hosil bo'lish* hodisasini uchraydi. Jumladan, Oydin – (sft). "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *oy chiqib, hamma yoq oy nuri bilan yorigan, yorug*<sup>147</sup> ma'nosi, prof. T.Nafasovning "Qashqadaryo qishloqnomasi" kitobida esa "Oydin – kishi (*asosan qizlar, ba'zan o'g'illar*) ismi. Oydin yer yuza shakllari yer yuzasidan past joylar va suv havzalari (*ko'l, hovuz*) nomida uchraydi va shu ikki tur joylarning tabiiy belgisini bildirishiga maxsuslangan. Oydin so'zining yer yuza shakllariga nisbatan ma'nosi: uydin-chuqur, baland-past, notekis. Oydin so'zining qadimiy shakli – uy+do'ng, ya'ni uydin-chuqur va past baland yerlar, notekis joy. Qadimgi turkiy tilda uy – yer sathidan birmuncha quyi joy, o'yi, do'ng – kichik balandlik. Uy +do'ng → uydo'ng → uydun → uydin – oydin – dastlab yaylov, o'tloq nomi bo'lgan, so'ngra shu yaylovdagi qishloq nomiga aylangan"<sup>148</sup>. Bu shuni anglatadiki, *oydin* leksemasi *antroponim, gidronim, oronim, toponim, dromonim* kabi onomastik birliklarning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan. Kasbi tumanida esa ko'cha nomi (*dromonim*) tarzida ishlatilganiga guvoh bo'lamiz.

Yuksalish – (*fe'l*). "Taraqqiy etish, o'sish, yuksak darajaga erish kabi ma'nolari" O'zbek tilining izohli lug'ati<sup>149</sup>da keltirilgan. Bu so'zning Kasbi tumanidagi dromonim sifatida ko'chishi, ya'ni konversiya usulida atoqli otga o'tishi, shu yerdagi ko'chaning nomi uchun tanlanganiga sabab sifatida yuqoridagi izohga e'tibor qaratilsa, atalgan joy *kundan kunga rivojlanib, yuqori darajaga erishi* uchun shu nomning berilganini taxmin qilish mumkin.

Do'stona (*ravish*) – "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'zga do'st kabi do'stlarcha, do'stlardek, do'stlik bilan kabi izohlari keltirilgan. "O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati"da esa "Do'stlik so'zi ijtimoiy-axloqiy va psixologik tushuncha. O'zaro hurmat, yoqtirish, manfaatlarning umumiyliigi, yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan kishilar o'rtasidagi munosabat shaklini ifodalaydi. Do'stlik millat va xalqlar o'rtasidagi ijobiy aloqalarda ham o'z ifodasini topadi. Hozirgi davrda ko'p millatli mamlakatimizning rivojlanishi uchun xalqlar o'rtasidagi do'stlik nihoyatda muhim"<sup>150</sup>, deb izohlangan. Ko'rinib turibdiki, do'stona va do'stlik so'zlari o'zaro qisman bo'lsa-da, yaqin ma'noli so'zlar hisoblanadi, shu nuqtayi nazardan olib qaraganda Kasbi tumanidagi ko'cha nomi ham yuqoridagi ma'nolarni umumiyashtirish orqali *birdamlik, ahillik, yaqinlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash* maqsadida dromonim yuzaga kelgan bo'lish mumkin.

Toponimik konversiya ayrim ilmiy manbalarda, xususan, "O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati toponimlar tilsimi" o'quv lug'atida: "Onomastik konversiya – apellyativ va onomastik leksika sathidagi so'zlarni topoobyektlarni nomlash ehtiyoji tufayli toponimik

<sup>146</sup> Yo'ldoshev I., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: "Iqtisod – moliya": 2007. – B. 131.

<sup>147</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 3-jild – Toshkent, 2022. – B. 564.

<sup>148</sup> Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2009. – B. 190.

<sup>149</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 6-jild – Toshkent, 2022. – B. 269.

<sup>150</sup> O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B. 119.

leksika sathiga ko'chishi. Onomastik konversiya ikki xil bo'ladi: 1) ichki konversiya – atoqli ot(onomastik so'z)larning toponimga ko'chishi; 2) tashqi konversiya – turdosh ot(apellyativ so'z)larning toponimga ko'chishi<sup>151</sup> kabi guruhlarga ajratilgan. Demak, bundan ko'rinadiki, toponimik konversiyani ham ikki guruh (ichki, tashqi toponimik konversiya)ga ajratish o'rinli. Shunga ko'ra Kasbi tumani ko'cha nomlari - *Mahmud Koshg'ariy-1, Xitoy-1, Atoiy-1, Mesit, Xo'jakasbi, Maymanoq* kabilar ichki konversiya misol bo'lib, ayrimlari antroponimdan toponimga yoki toponimdan urbonimga ba'zilar toponimdan gidronimga ko'chganligiga guvoh bo'lish mumkin. Tashqi konversiyaga esa *O'qotar, Barokatli, Yurtparvar, Gulzorli, Mustaqil, Obodon* toponimlarini misol sifatida keltirish joizdir.

Tadqiqotimizdan xulosa shuki, toponimlarni hosil qilishda konversiya usuli sermahsul usul bo'lib, tuman toponimlarining aksariyati, substantivatsiya — konversiya yo'li bilan (ichki, tashqi konversiya usuli orqali) yuzaga kelganiga guvoh bo'ldik.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adizova N.B. Buxoro tumani mikrotoponimlarining leksik- semantik tadqiqi: Filol fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2021.
2. Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2016.
3. Turdibekov M.T. Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarixiy-lingvistik xususiyatlari: Filol fan. dokt. diss. avtoref. – Toshkent: 2022.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. www. ziyouz.com kutubxonasi
5. Yo'ldoshev I., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: “Iqtisod – moliya”, 2007.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 3-jild – Toshkent, 2022.
7. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2009.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 6-jild – Toshkent, 2022.
9. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022.
10. Ernazarov T.J va boshqalar. O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati toponimlar tilsimi (o'quv lug'atida). – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2019.

<sup>151</sup> Ernazarov T.J va boshqalar. O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati toponimlar tilsimi (o'quv lug'atida). – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2019. – B. 27.